



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI VAZIRINING  
BUYRUG‘I**

**Xorijiy til hamda fanlar bo‘yicha milliy va xalqaro tan olingan  
sertifikatlarni maktabdagi yakuniy imtihonlarda tan olish tizimini joriy  
etish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan sohani rivojlantirish chora-tadbirlari yuzasidan 2025-yil 15-sentabr kuni bo‘lib o‘tgan yig‘ilishida berilgan 50-son topshiriqlar bayonida belgilangan vazifalar ijrosini o‘z vaqtida ta‘minlash maqsadida **buyuraman**:

1. Xorijiy tillar hamda umumta‘lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlariga ega bo‘lgan maktab o‘quvchilariga yakuniy imtihonlarda qo‘shimcha imtiyoz belgilash tartibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. 2026-2027-o‘quv yilidan boshlab belgilangan talablarga mos bo‘lgan sertifikati mavjud o‘quvchilarni yakuniy imtihonlardan ozod etish tartibi joriy etilsin.

3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, raqamlashtirish va sun‘iy intellektni rivojlantirish boshqarmasi (S.Abdukarimov)ga:

bir oy muddatda o‘quvchilar tomonidan olingan xorijiy tillar hamda umumta‘lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlarini yuklash, haqiqiylikini tekshirish va tasdiqlash bilan bog‘liq zaruriy amallarni bajarish yuzasidan “erp.maktab.uz” elektron platformasida qo‘shimcha funksiyalarni ishga tushirish;

xorijiy tillar hamda umumta‘lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy sertifikatlarining haqiqiylikini avtomatik tekshirish maqsadida “erp.maktab.uz” elektron platformasiga “Raqamli hukumat” idoralararo tizimi integratsiya qilinishini joriy o‘quv yili yakuniga qadar yakunlash vazifalari yuklatilsin.

4. O‘quvchilar bilimini baholash, tahlil qilish va apostil xizmatini ko‘rsatish boshqarmasi (R.Ergashev):

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 4-apreldagi 4-q/q-son va Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligining 2024-yil 2-apreldagi 3-mh-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 29-mayda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3515) bilan tasdiqlangan Xorijiy tillar va umumta‘lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar ro‘yxatida quyidagi:

2-bob. O'rtta maxsus, professional, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'limga kirishda tan olinadigan xorijiy tillarni bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro sertifikatlar ro'yxati;

5-bob. Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga o'qishga kirishda imtiyoz beradigan umumta'lim fanlari bo'yicha milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar ro'yxatida keltirilgan sertifikatlarning haqiqiylikni aniqlashda vakolatli tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'ysin;

Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish boshqarmasi (A.Umarxodjayev) bilan hamkorlikda sertifikatlarning verifikatsiya qilinish jarayonlarini muvofiqlashtirib borsin;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalaridan belgilangan mas'ullar ishtirokida xorijiy tillar hamda umumta'lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlarni verifikatsiyadan o'tkazish tartibi hamda ushbu buyruqning mazmun-mohiyatini tushuntirish maqsadida o'quv-seminar tashkil etsin;

xorijiy tillar hamda umumta'lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlarga ega bo'lgan maktab o'quvchilariga yakuniy imtihonlarda qo'shimcha imtiyoz belgilash tartibini sohadagi islohotlarga muvofiq takomillashtirib borilishini tashkil etsin.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari:

belgilangan tartibda umumta'lim maktablarida xorijiy tillar hamda umumta'lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlarga ega bo'lgan o'quvchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni doimiy ravishda "erp.maktab.uz" elektron platformasiga to'liq kiritib borilishini ta'minlasin;

tasdiqlangan tartibga muvofiq xorijiy tillar hamda umumta'lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlarga ega bo'lgan maktab o'quvchilarini yakuniy imtihonlardan ozod etilishi yuzasidan nazorat o'rnatsin.

6. Devonxona (X.Raximbayeva) bir kun muddatda o'rnatilgan tartibda ushbu buyruqni vazirlikning tegishli tarkibiy bo'linmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga yetkazsin.

7. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazir o'rinbosari A.Turdiyev zimmasiga yuklansin.

**Vazir**

Toshkent sh.,  
2026-yil "15"-aprel,  
138-son



**E.Karimova**

O‘zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab  
ta’limi vazirining  
2026-yil “15”-apreldagi  
138 -sonli buyrug‘iga  
ILOVA

**Xorijiy tillar hamda umumta’lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi  
milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlarga ega bo‘lgan umumta’lim  
maktablari o‘quvchilariga yakuniy imtihonlarda qo‘shimcha imtiyoz  
belgilash  
TARTIBI**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu hujjat xorijiy tillar hamda umumta’lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlarga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun yakuniy davlat imtihonlarida imtiyoz qo‘llash tartibini belgilaydi.

2. Ushbu tartib Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimida faoliyat yurituvchi umumta’lim maktablariga nisbatan tatbiq etiladi hamda sohadagi islohotlarga muvofiq takomillashtirilib boriladi.

3. Mazkur tartibda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

**talabgor** – umumta’lim fanlari bo‘yicha tegishli sertifikatga ega bo‘lgan o‘quvchi;

**mas’ul vakolatli tashkilot** – imtihonni tashkil etishga vakolatli xorijiy tashkilot yoki uning O‘zbekiston Respublikasi hududidagi vakolatli vakili bo‘lgan yuridik shaxs;

**sertifikat** — mas’ul vakolatli tashkilotlar tomonidan beriladigan, maxsus seriya raqamiga ega, imtihon natijasini tasdiqlovchi hujjat;

**mas’ul xodimlar** – nazorat qiluvchi va amaliy yordam ko‘rsatuvchi vazirlik markaziy apparati va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari (keyingi o‘rinlarda – hududiy boshqarmalar) mutaxassislari;

**ERP** – Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining Yagona elektron dasturi (erp.maktab.uz);

**verifikatsiya** – ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan maxsus sertifikatning haqiqiylikini mas’ul vakolatli tashkilotning elektron tizimi orqali tekshirish;

**qo’shma qaror** – O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 4-apreldagi 4-q/q-son va Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2024-yil 2-apreldagi 3-mh-son “Xorijiy tillar va umumta’lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 29-mayda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3515).

4. Qo’shma qaror bilan tasdiqlangan Xorijiy tillar va umumta’lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar ro‘yxatida quyidagi:

2-bob. O‘rta maxsus, professional, oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’limga kirishda tan olinadigan xorijiy tillarni bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro sertifikatlar ro‘yxati;

5-bob. Oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga o‘qishga kirishda imtiyoz beradigan umumta’lim fanlari bo‘yicha milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar ro‘yxatida keltirilgan (minimal darajadagi) milliy va xalqaro sertifikatlarga ega bo‘lgan o‘quvchilar tegishli fan bo‘yicha yakuniy imtihonni topshirishdan ozod etiladi.

5. Hududiy boshqarmalar mas’ul xodimi tomonidan sertifikatlarning haqiqiylikini tekshirish jarayonlari amalga oshiriladi.

**2-bob. Xorijiy tillar hamda umumta’lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlarni umumta’lim maktablaridagi yakuniy imtihonlarda tan olinishini tashkil etish**

6. Xorijiy tillar hamda umumta’lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlarga ega bo‘lgan umumta’lim maktablari o‘quvchilari sertifikatning asl nusxasini umumta’lim maktablarida belgilangan mas’ul xodimga taqdim etadi.

7. Umumta’lim maktablarida belgilangan mas’ul xodim tomonidan xorijiy tillar hamda umumta’lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlarga ega bo‘lgan o‘quvchilar ro‘yxati (F.I.SH., sertifikat bergan tashkilot nomi, sertifikat seriyasi, raqami, darajasi/umumiy ball, berilgan sanasi, amal qilish muddati) shakllantirilib boriladi. Bunda, umumta’lim maktablarida belgilangan mas’ul xodim tomonidan

ro'yxat shakllantirish uchun sertifikatning elektron nusxasi olinib, asl nusxasi egasiga qaytariladi.

8. Taqdim etilgan sertifikatlar bir ish kuni davomida umumta'lim maktablarida belgilangan mas'ul xodim tomonidan ERP platformasiga sifatli holda yuklanadi va haqiqiylikini tekshirish uchun hududiy boshqarmalar mas'uliga yuboriladi.

9. Xorijiy tillar bo'yicha sertifikatlarning belgilangan talablarga mosligi va verifikatsiyasi hududiy boshqarmalarning Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish sho'balari tomonidan amalga oshiriladi hamda umumiy monitoring va nazorat vazirlikning Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish boshqarmasi tomonidan yuritiladi.

10. Umumta'lim fanlari bo'yicha sertifikatlarning belgilangan talablarga mosligi va verifikatsiyasi hududiy boshqarmalarning O'quvchilar bilimni baholash va tahlil qilish sho'balari tomonidan amalga oshiriladi hamda umumiy monitoring va nazorat vazirlikning O'quvchilar bilimni baholash, tahlil qilish va apostil xizmatini ko'rsatish boshqarmasi tomonidan yuritiladi.

11. Sertifikatlarning haqiqiylikini tekshirish maqsadida, vazirlik tomonidan tegishliligi bo'yicha hududiy boshqarmalar mas'ullariga mas'ul vakolatli tashkilotlarning ma'lumotlar bazalaridan foydalanish uchun ruxsatnomalar taqdim etiladi. Mas'ul xodim lavozimi o'zgargan taqdirda, ruxsatnomalar vazirlikka qaytarilishi shart. Ruxsatnomalarni uchinchi shaxslarga o'tkazish qat'iyan taqiqlanadi.

### **3-bob. Verifikatsiyani tashkil etish va o'tkazish**

12. Taqdim etilgan sertifikatlarning belgilangan talablarga mosligi va haqiqiyligi hududiy boshqarmadan belgilangan mas'ul xodimlar tomonidan o'n kun muddatda vakolatli tashkilotlar bilan hamkorlikda o'rganib chiqiladi.

Bunda:

umumta'lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy sertifikatlarning haqiqiylikini o'rganish vazirlikning ERP elektron platformasiga "Raqamli hukumat" idoralararo tizimi integratsiya qilinishi orqali avtomatik holda amalga oshiriladi;

xalqaro tan olingan sertifikatlarning haqiqiylikini uni bergan vakolatli tashkilotning ma'lumotlar bazasi bilan solishtirish, tashkilotga so'rov yuborish yoki boshqa aloqa usullari orqali aniqlash choralari ko'riladi;

kiritilgan sertifikat belgilangan talablarga mos emas yoki haqiqiy emas deb topilsa, sertifikat umumta'lim maktablariga qaytarib yuboriladi;

kiritilgan sertifikat belgilangan talablarga mos va haqiqiy deb topilsa verifikatsiya tasdiqlanadi.

13. Agar sertifikatning haqiqiylikini ma'lumotlar bazasi orqali aniqlashning imkoni bo'lmasa, hududiy boshqarmalar mas'ul xodimi sertifikatni bergan vakolatli tashkilotga so'rov yuboradi.

Yuborilgan so'rovga o'ttiz kun ichida javob kelmasa sertifikat haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Mas'ul vakolatli tashkilot tomonidan o'ttiz kunlik muddatdan so'ng sertifikatning haqiqiyligi to'g'risida kechikib javob olingan taqdirda, hududiy boshqarmalarning mas'ul xodimlari tomonidan sertifikatni qayta yuborish mumkinligi to'g'risida umumta'lim maktabida belgilangan mas'ul xodim xabardor qilinadi.

14. Hududiy boshqarmalar mas'ul xodimi tomonidan sertifikat qaytarilganda, umumta'lim maktablarida belgilangan mas'ul xodim aniqlangan kamchilik va noaniqliklarni uch kun muddatda bartaraf etib, qayta yuborishi mumkin.

15. Xorijiy til va ta'lim fanlari bo'yicha qo'shma qarorda belgilangan minimal talablarga mos bo'lgan va mas'ul xodim tomonidan ERP platformasida haqiqiylik tasdiqlangan sertifikatlar o'quvchilarni yakuniy imtihonlardan ozod etish uchun asos bo'ladi.

16. Umumta'lim maktabi direktori sertifikatning asl nusxasi mavjud bo'lmagan hollarda, sertifikatni ERP platformasiga kiritilmasligini nazorat qiladi (*Mas'ul vakolatli tashkilot tomonidan talabgorga sertifikatning asl nusxasi yuborilmaydigan sertifikat bo'lgan hollar bundan mustasno*).

#### **4-bob. Yakuniy qoidalar**

17. Vazirlik, hududiy boshqarmalar va umumta'lim maktablari rahbarlari o'z faoliyati doirasida olingan o'quvchilarga tegishli ma'lumotlarning sir saqlanishini kafolatlaydi.

18. Ushbu tartibga rioya qilmagan mas'ul xodimlarga nisbatan belgilangan tartibda intizomiy jazo choralari ko'riladi.